

XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI VA RIVOJLANISH TAMOYILLARI

Ilyosova Zebiniso Ilhomjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti

Chet tillari fakulteti, Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili

1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Karimjonova Shahloxon Ravshanjonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishning hozirgi zamon uchun dolzarbligi, mavjud muammolar va rivojlanish tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy tillarni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ularning ta'limdagi o'rni, CLIL yondashuvi, psixolingvistik tamoyillar va o'qituvchilarning malakasini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar: xorijiy til, ta'lim, raqamli texnologiya, malaka oshirish, psixolingvistik tamoyillar, metodika, CLIL, integratsiya.

Kirish

Globalashuv jarayoni insoniyat hayotining har bir jabhalariga, xususan, ta'lim sohasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ilm-fanning rivoji, xalqaro aloqalarning kengayishi xorijiy tillarni o'rganishni zamonaviy jamiyat hayotida muhim o'rin egallashiga olib keldi. Shuningdek, xorijiy tillarni o'rganish zamonaviy jamiyat a'zosi bo'lishning muhim shartlariga aylanmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari surilgan ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha ilgari surilgan tashabbuslari xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishning yangi darajaga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda

Asosiy qism

1. Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarbligi

Hozirgi zamon sharoitida chet tillarini bilish quyidagi talablar bilan izohlanadi:

Xalqaro integratsiya: Insonlar o'rtasida madaniy, ilmiy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni kengaytirish uchun xorijiy tillarini bilish zarur hisoblanadi.

Axborot resurslaridan foydalanish: Internetdagi ilmiy, texnik va madaniy manbalarning ko'pchiligi ingliz tilida taqdim etilgani sababli bu tilni bilish ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega .

Xalqaro ta'lim dasturlariga qatnashish: Chet tilini yaxshi egallagan yoshlar nufuzli xorijiy universitetlarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim imkoniyatlari:Chet tilini bilgan o'quvchilar xorijiy grant va stipendiyalardan samarali foydalanishi mumkin.

Prezident qarorlari asosida xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Xorijiy til o'qituvchilari uchun milliy sertifikat tizimi joriy qilindi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limdan boshlab xorijiy tilni o'qitish yo'lga qo'yildi.

IELTS, CEFR kabi xalqaro standartlar asosida bilim baholash tizimi ishlab chiqilmoqda.

2. Xorijiy tillarni o'qitishda dolzarb muammolar

O'qituvchilarning metodik saviyasi har xil;

Ta'lim resurslari va jihozlar tanqisligi;

O'quvchilarning motivatsiyasi pastligi;

Til muhitining sun'iyliigi.

3. Rivojlanish tamoyillari

CLIL (Content and Language Integrated Learning): Til va boshqa fanlar integratsiyasida o'qitish uslubi chet tajribalarida samarali natijalar bermoqda .

Raqamli ta'lim vositalari: Duolingo, Quizlet, BBC Learning English,Ibrat Academy kabi platformalar xorijiy tilni o'rganishda interaktiv va mustaqil ta'lim imkonini yaratadi.

Kichik yoshdan o'rgatish: Psixolingvistik tadqiqotlarga ko'ra, kichik yoshdagi bolalar tilni o'zlashtirishda yuqori qobiliyatga ega bo'ladi .

O'qituvchilarning malakasini oshirish: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida xorijiy til o'qituvchilarining muntazam ravishda malakasini oshirish yo'lga qo'yilgan .

Xulosa: Xorijiy tillarni o'qitish bugungi kundagi global ehtiyojlarning ajralmas qismidir. Mazkur jarayonda tizimli yondashuv, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilarni muntazam tayyorlash va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Kelgusida bu yo'nalishdagi yutuqlar nafaqat ta'lim sifatini, balki mamlakatning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ–2909-son, 2017-yil 6-dekabr.

Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.

Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.

Lightbown, P.M., & Spada, N. (2013). How Languages are Learned. Oxford University Press.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-fevraldagi “Xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.